

## HIGHER EDUCATION DURING THE PANDEMIC (QUARANTINE): PROBLEMS AND SOLUTIONS

Gulmuradova Sobira Rustam qizi  
Master of Philology, SamSU

### Abstract

This article discusses the problems in the higher education system caused by the pandemic, their causes and consequences, measures to address them and the work that needs to be done in this regard.

**Keywords:** Pandemic, world, higher education, problem, internet, student, distance learning, auto tuning, programmer.

**Kalit so'zlar:** Pandemiya, dunyo, oliy ta'lim, muammo, internet, talaba, masofaviy ta'lim, avtosozlama, dasturchi

**Ключевые слова:** Пандемия, мир, высшее образование, проблема, интернет, студент, дистанционное обучение, автотюнинг, программист.

Bu yil tabiatning buyuk in'omi bo'lgan butun boshli insoniyat hayotiga og'ir, sinovli kunlar keldi. Bu og'ir damlar ayni daqiqalarda ham davom etib bormoqda. Butun dunyo tibbiyot xodimlari tomonidan tan olingan va e'tirof etib kelinayotgan bu ofat, COVID-19 ayni soatlarda ham bizning hayotimizga xavf solib turmoqda. Virus yer yuzidagi barcha mamlakatlarga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Sanoqli mamlakatlarga bundan aziyat chekmagan deya olishimiz mumkin. Virusning tarqalish koeffisienti barcha davlatlarda turlicha holatda kechmoqda. Dunyoning iqtisodiyoti eng rivojlangan, tibbiyot olami eng ilg'or mamlakatlari ham virusni bartaraf etishda o'zlarini ojiz sezishmoqda. Pandemiya nafaqat insonlar hayotiga, balki inson faoliyati bilan bog'liq barcha sohalarga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Butun dunyo miqyosida insonlar hayotiga xavf solib turgan virus tarqalishining oldini olish maqsadida turli karantin cheklovlari joriy etildi. Insonlar uyda qolishga, o'z mehnat faoliyatlarini imkon qadar masofadan turib bajarishga zarurat tug'ildi. Bunday holat hozirda ham davom etmoqda. Virus tarqalishi, karantin cheklovlarning joriy etilishi oqibatida mamlakatlararo ishlab chiqarish hajmi pasaydi, ish o'rinlari qisqarib import va eksport sifati ham o'zgardi. Pandemiya nafaqat mamlakatlarning iqtisodiyotiga, balki ularning ijtimoiy sohalarida ham keskin ta'sir o'tkazmoqda. Jumladan, bolalar bog'chalari, umumta'lim maktablari, oliy va o'rta maxsus ta'lim maskanlarida o'qitish jarayoni masofaviy shakldada yo'lga qo'yildi. Oliy ta'lim maskanlarida, universitet, institutlarda ta'lim jarayoni mavjud vaziyatdan kelib chiqqan holda o'zgartirildi. Bu jarayon, o'z navbatida, qator muammo va qiyinchiliklarni ham tug'dirib kelmoqda. Bunday

salbiy holatlarning rivojlanish tendensiyasi nisbatan past ko'rsatkichda bo'lgan mamlakatlarda kuzatilyapti. Lekin shunga qaramasdan, jahonning qator mutasaddi tashkilotlari pandemiya oqibatida e'lon qilingan qat'iy karantin qoidalari ta'lim, jumladan, oliy ta'lim uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochganini aytishmoqda. Xususan, Armanistonda karantin paytida masofadan turib ta'lim olish imkoniyatini beruvchi universitetlarning yagona "University platforma"si ishga tushirildi. Birlashgan Arab Amirliklarining internet tarmog'ida 5 ta yangi avtomatik ilovalar ishlay boshladi. Rossiya universitetlarida esa masofaviy ta'lim jarayonida qo'shimcha reallik texnologiyasining qo'llanilishi ta'limda innovatsiya bo'ldi. Pandemiya oqibatida masofaviy ta'lim tizimidan foydalanish o'z o'rnida qator muammolarni ham keltirib chiqardi. Bunga sabab birinchidan, internet texnologiyalaridan foydalanish uchun mavjud o'qituvchi va talabalarda raqamli savodxonlikning yetarli darajada qoniqarli emasligi. Ikkinchidan, ayrim mamlakat hududlarida internetdan foydalanish tezligining pastligi. Uchinchidan, ba'zi mamlakatlarda internetga ulanish imkoniyatining kamligi yoki aholining aksariyat qismi uchun bunday imkoniyatning deyarli yo'qligi. To'rtinchidan esa aksariyat ta'lim oluvchilarda masofadan turib o'qish uchun texnik vositalarning, jumladan, kompyuter, noutbuk, gadjetlarning yetarli emasligidir. Albatta, bunday holat ta'lim sifatiga yetarlicha salbiy ta'sir etmasdan qolmadi. Texnik nosozliklar va boshqa omillar ta'lim jarayonida uzilishlarga olib keldi. Xo'sh, yurtimiz O'zbekiston sharoitida bu holat qanday kechmoqda? Pandemiya oqibatida ta'lim jarayonini masofadan turib boshqarish qay tartibda yo'lga qo'yildi? Oliy ta'lim muassasalarida bunday ishlar qay darajada amalga oshirildi? Bu o'rinda masofaviy ta'lim shaklining yutuq va kamchiliklari nimadan iborat bo'ldi, kabi qator savollar tug'ilishi tabiiy, albatta. Dastlab, pandemiya sharoitida olib borilgan masofaviy ta'lim tizimining biz guvohi bo'lgan yutuqlariga to'xtalsak. Yurtimiz oliy ta'lim muassasalarining yoshidan qat'i nazar barcha professor-o'qituvchilarida masofaviy ta'lim va uni olib borish sohasidagi bilim va ko'nikmalar shakllandi va rivojlandi. Kelajakda masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish borasida qilinishi kerak bo'lgan vazifalar esa tahlil etib borilmoqda. Masofaviy ta'lim ayni paytda kelajak uchun tajriba vazifasini o'tamoqda desak, adashmagan bo'lamiz. Bundan tashqari, masofaviy ta'lim shakli boshqalar oldida, omma orasida o'z fikr-mulohazalarini erkin bayon eta olmaydigan talabalar uchun qulay imkoniyat bo'ldi. Masofaviy ta'lim shakli orqali ular o'z fikr-mulohazalarini erkin tarzda audio, video ko'rinishida bildirishdi. Masofadan turib o'qitish o'qituvchilar uchun ham, talabalar uchun ham moliyaviy ko'mak bo'ldi desak, xato qilmagan bo'lamiz. Chunki ular hech qanday kundalik iqtisodiy xarajatlarsiz ta'lim berish va ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Bundan tashqari masofaviy ta'lim o'qituvchi va o'quvchilar vaqt reglamentining ancha tejalishiga ham yordam berdi. Masofaviy ta'lim orqali ularning universitetga borish va kelish uchun sarflanadigan vaqtlari tejaladi. Tejalgan vaqt hisobiga endi ular boshqa manbalardan yangi bilimlarni bema'lol o'zlashtirishlari mumkin. Nazarimda, oliy ta'lim muassasalarimizda o'qitishni masofadan yo'lga qo'yish borasida muammo va kamchiliklari ham talaygina. Vaziyatdan, sharoitdan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, yurtimiz hududlaridagi barcha oliy ta'lim muassasalari bunday holatga

hali yetarlicha tayyor emas. Universitetlarda darslarni onlayn tashkil etish maqsadida “moodle” platformasi ishga tushirildi. Bu internet qurilmasi yurtimizning sanoqli oliy ta’lim muassasalarida foydalanilar edi. Shunga qaramasdan “moodle” tizimidan foydalanish universitet o’qituvchilari va talabalari uchun qator tushunmovchiliklarni keltirib chiqardi. Ayrim universitetlarda onlayn ta’lim manbalarining yetishmaganligi sabab talabalarning an’anaviy ta’lim tizimiga nisbatan masofaviy ta’lim tizimida o’zlashtirish darajasi nisbatan past ko’rsatkichni tashkil etdi. Darsliklar “moodle” tizimida ma’ruza, seminar, amaliyot, mustaqil ta’lim topshiriqlari ko’rinishida joylashtirilganiga qaramasdan, ular talabalar tomonidan to’liq tartibda o’zlashtirildi, har bir ma’ruza har bir o’quvchi-talaba tomonidan mustaqil kuzatib borildi, deya olmaymiz. Chunki talabalarning turli hududlarda yashashini inobatga oladigan bo’lsak, ularning hammasida ham internetdan erkin foydalanish imkoniyati mavjud emas. Yurtimizning barcha hududlarida ham internet tezligi bir xil yuqori ko’rsatkichni tashkil etmaydi. Ayrim chekka hududlar internet tarmog’idan butunlay uzilgan. Hozirgi vaziyatda butun dunyo onlayn hayot rejimiga o’tganligi sabab markaziy shahar, viloyat hududlarida ham internet tezligi past ko’rsatkichda ishlamoqda. Shu bilan birga, bu vaziyat yana bir boshqa muammo, joriy, oraliq va mustaqil ta’lim topshiriqlarini talabalar bir-biridan yoki darslik, manbalardan ko’chirish muammosini keltirib chiqaradi. O’quv yili yakuni uchun qo’yilgan testlarni yechishda bir talaba onlayn tarzda ikki yoki uch talaba o’rnida yechish holatlari kuzatildi. Davlat attestatsiyalari onlayn tartibda yo’lga qo’yilganligi sabab talabalar ko’proq ko’chirmachilikka yo’l qo’yishmoqda. Bu esa oliy ta’lim maskanlarida shundoq ham mavjud bo’lgan plagiat muammosining gurkirab rivojlanishiga sharoit yaratmoqda. Kelajakda masofaviy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish, yurtimizda masofadan turib o’qitish sifatini yanada oshirish uchun jahonning qator rivojlangan davlatlari singari yurtimizda ham internet faoliyati yaxshiroq yo’lga qo’yilishi kerak, deb o’ylayman. Dasturchilarimiz tomonidan internet avtosozlamalari, mudl platformasidek qo’shimcha yangi boshqaruv tizimlari ishlab chiqilishi, mavjud boshqaruv tizimlari esa yana ham takomillashtirilib, iste’molchilar uchun qulay va tushunarli funksiyalar bilan boyitilishi muhim. Bu esa pedagog va axborot texnologiyalari mutaxassislarining zimmasiga qo’yiladigan galdagi vazifadir.